


2020- yil yanvar-iyun oylari uchun Toshkent viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent viloyatida jami **2961,1** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **101,6 %** ni tashkil etdi.




2020- yil yanvar-iyun oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3,3 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,8 mingtaga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **121,1 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **53,9 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **147,6 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **7,6 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **141,3 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **38,6 %**) o'sishidir.




Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da
	01.07.2019- yil	01.07.2020- yil	
Toshkent viloyati	2547	3312	130,0
Nurafshon sh.	123	160	130,1
Olmaliq sh.	167	199	119,2
Angren sh.	192	251	130,7
Bekobod sh.	136	166	122,1
Ohangaron sh.	74	102	137,8
Chirchiq sh.	204	280	137,3
Yangiyo'l sh.	68	79	116,2
tumanlar:			
Oqqo'rg'on	70	92	131,4
Ohangaron	57	72	126,3
Bekobod	94	98	104,3
Bo'stonliq	85	118	138,8
Bo'ka	90	92	102,2
Quyi Chirchiq	57	84	147,4
Zangiota	184	222	120,7
Yuqori Chirchiq	148	196	132,4
Qibray	219	321	146,6
Parkent	82	98	119,5
Piskent	61	77	126,2
O'rta Chirchiq	151	213	141,1
Chinoz	69	107	155,1
Yangiyo'l	106	151	142,5
Toshkent	110	134	121,8



Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni 01.07.2020-yil holatiga ko'ra (ulushi % da)




Ma'lumot uchun: viloyatida soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Qibray (9,6 %), Chirchiq sh. (8,5 %) va Angren sh. (7,6 %) qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **620,4** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **169,7 %** ga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **8,6 %** punktga ko'payib, **21,0 %** ni tashkil etdi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Zangiota tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **30,7 %** i yoki 2019- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan **162,9 %**), Qibray (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **29,9 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **220,3 %**), va Yangiyo'l sh. (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **36,0 %** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **116,0** marta ko'p) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil yanvar-iyun oylarida qurilish ishlari bajarilgan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **61,0 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-iyun oylari ko'rsatkichiga nisbatan **3,0 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **96,2 %** ni tashkil etgan holda **1808,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

*Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **18,0 %** ni tashkil etdi yoki **531,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019 - yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **80,5 %** ni tashkil etdi.*



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi


ulushi % da, mlrd. so'm



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **56,1** mlrd. so'm yoki 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **65,5 %** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2905,0** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **166,1 %** ni tashkil etdi. Ularning viloyatidagi tutgan ulushi mos ravishda **1,9 %** va **98,1 %** ni tashkil etdi.




Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



2020- yil yanvar-iyun


Toshkent viloyatida qurilish ishlari

7



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar-iyun oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Jami qurilish pudrat ishlari hajmida hududlarning ulushi % da
Toshkent viloyati	2961,1	101,6	100,0
Nurafshon sh.	128,3	97,1	4,3
Olmaliq sh.	126,0	103,7	4,3
Angren sh.	127,3	102,8	4,3
Bekobod sh.	118,3	100,8	4,0
Ohangaron sh.	106,4	101,6	3,6
Chirchiq sh.	152,8	103,5	5,2
Yangiyo'l sh.	68,6	102,6	2,3
tumanlar:			
Oqqo'rg'on	86,3	101,0	2,9
Ohangaron	85,2	101,6	2,9
Bekobod	84,0	95,2	2,8
Bo'stonliq	133,4	93,3	4,5
Bo'ka	80,0	102,9	2,7
Quyichirchiq	67,2	103,7	2,3
Zangiota	382,0	107,1	12,9
Yuqori Chirchiq	194,7	100,4	6,6
Qibray	263,2	100,5	8,9
Parkent	161,3	102,2	5,4
Piskent	90,3	100,9	3,0
O'rta Chirchiq	136,3	93,8	4,6
Chinoz	85,5	100,1	2,9
Yangiyo'l	110,1	99,0	3,7
Toshkent	173,9	112,6	5,9



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2020- yil yanvar- iyun oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Zangiota
382,0


2

Yuqori Chirchiq
194,7

1

Qibray
263,2

3



Kichik hajm

(mlrd. so'm)

Bo'ka
80,0

2

Quyichirchiq
67,2

1

Yangiyo'l sh.
68,6

3





Toshkent viloyati statistika boshqarmasi

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (71) 202-86-70